



BUXORO DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETILISHI VA YUTUQLARI

Sultonova Nigina

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tel:(90)513-14-18
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378056>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 11-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 17-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

Muzey, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, interaktiv xizmat, QR-kod, madaniy meros, Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarorida belgilangan "2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari" rejasining mazmun-mohiyati, ayniqsa, muzeylarni axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari, interaktiv xizmatlarni rivojlantirish va ularning amaliy natijalari tahlil etilgan. Tadqiqotda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi misolida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni, ularning madaniy merosni saqlash va targ'ib etishdagi o'rni yoritilgan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 dekabrda 975-sonli qaroriga muvofiq, «2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari» rejasining III-bandida «Milliy muzey fondining davlat katalogini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish hamda interaktiv xizmat ko'rsatishni kengaytirish» masalasi belgilab qo'yildi. Davlat muzeylarining veb-saytlarini yangilash, mobil elektron dasturini yaratish va yagona portalga birlashtirish; - Sayyohlik yo'nalishidagi muzey saytlari 6 ta jahon tilida yuritilishini ta'minlash; - Muzey ashyolari va xalq hunarmandchiligining eng yaxshi namunaviy ko'rinishlarini mobil telefonlar uchun dasturiy mahsulotlar yaratish orqali keng ommalashtirish; muzey ma'lumotlar bazasini yirik sayyohlik kompaniyalarining internet saytlariga joylashtirish ko'zda tutilgan¹.

O'zbekistonda sayyohlar sonining ko'pligi va jozibadorligi bilan ajralib turuvchi Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi 1922 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda². Muzeyning birinchi direktori A.Po'latovning so'zlariga ko'ra: "Muzey endigina yaratildi, ammo uni eksponatlar bilan boyitish va chinakam zamonaviy muzeyga aylantirish yangi avlodning vazifasidir"³. 1927 yil 1 martdan boshlab muzey uchun ko'rgazma tuzishga kirishiladi. Yig'ilgan ashyolar saralanib, ularga etiket(yorliq) yoziladi. Muzeyda uchta bo'lim tashkil etiladi. Ular arxeologiya,

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.12.2017 yildagi 975-son qarori.

² Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея//Из истории культурного наследия Бухара № 2. - С 38, Церемония открытия в Бухаре первого музея// Бухоро ахбори 112-сон. 1922 йил 23 ноябрь.

³ Пулатова М. Асрлардан гувоҳлик бериб. // Бухоронома 2002 й 18.05. - С 4.

etnografiya, tabiat bo'limlari bo'lib, etnografiya bo'limining asosini Buxoro mahalliy aholisining XIX-XX asrlarga oid kiyimlari, zardo'zlik buyumlari tashkil etadi⁴. Buxoro amirligi tugatilgach hukumat o'tmishdan meros bo'lib qolgan osori-atiqalarga egalik qilish maqsadida ularni bir joyga yig'ish vazifasini birinchi masala sifatida qo'ydi. Va bu yilda birinchi tashkil etilgan muzey fondida jamlangan ashyolar soni salmoqli darajaga yetadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin muzeylar faoliyatini yaxshilash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika bilan boyitish, muzeylarni ta'mirlash, ular yangi zamonaviy jihozlar bilan jihozlash, yo'lko'rsatkich, katalog, bukletlar nashr qilishga katta e'tibor qaratildi.

Muzeylarni axborotlashtirishdagi muhim vazifalardan biri barcha kolleksiyalarni raqamlashtirish sanaladi. Bu narsa muzey to'plamlarining xavfsizligini va saqlanish darajasining holatini ta'minlaydi. Muzey eksponatlari haqidagi ma'lumotlar qanchalik ko'p bo'lsa, havfsizligi ham shunchalik ortadi. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyatida xalqaro hamkorlik va muzeylararo aloqalar ham alohida ahamiyat berilayotgan va keng imkoniyatlar doirasida ish olib borilayotgan yo'nalish hisoblanadi. Bugungu kunda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy davlatlardagi muzeylar bilan ham samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan muassasalardan biridir. Muzeyda jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, muzey faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jamoatchilikni muzey ishlariga jalb etish, shuningdek, madaniy merosni saqlash va targ'ib etish yo'lida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2024-2025-yilning o'zida muzeyning o'n to'qqiz ming ashyosini elektron davlat katalogiga kirgizdi. Deyarli barcha muzey filiallarining ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy akkauntlari yaratildi. Ulardan muzeyda o'tkazilayotgan tadbirlarni tashqi auditoriyaga taqdim etish maqsadida foydalanilmoqda.

Muzey-filiallarimizning deyarli barchasida rus, ingliz, turk va xatto fransuz tillarida so'zlashuvchi ilmiy xodimlar va ekskursovodlarimiz mavjud bo'lib, tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Muzeyning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy saytlarini yuritishga ham alohida ahamiyat berilgan. Bundan tashqari, tashrif buyurgan mehmonlar uchun har bir eksponat oldida maxsus QR-kodlar yaratilgan bo'lib, tomoshabinlar mobil aloqa vositalari yordamida skanerlash orqali o'zlari istagan tilda virtual ma'lumot olish imkoniyatiga egalar. Buning ustun tarafi shundaki, insonlar eksponat tarixini tasavvurni jonlantirgan holatda o'rgana oladilar. Muzey xodimlari zamonaviy axborotlashgan dasturlardan foydalanishning ustunligini va muzey marketingini rivojlantirishga katta hissa qo'shishini tushundilar. Muzey to'plamlarini ijtimoiy tarmoqlarda keng namoyish etish muzeyga yangi tomoshabinlarni va yangi hamkorlarni jalb qiladi. Muzey haqida ma'lumotlar qanchalik ochiqlangan bo'lsa, hamda turli tillarga tarjima qilingan bo'lsa muzeylararo ma'lumot almashinuvning kengayishiga yordam beradi. Albatta, mazkur amaliyotlarni xalqaro tajribalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoq barcha insonlarning hayot tarzidagi asosiy o'rinni egalladi. Turli qiziqarli interaktiv dasturlar orqali maktab yoshidagi tomoshabinlarni ham jalb qilish mumkin.

Interaktiv xizmatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u milliy madaniy merosni asrash va jahon miqyosida targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda muzeylarda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali

⁴ Болтаев А.Х. Бухоро музейи-тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. Бухоро 2019 йил. - Б 11.

muzei faoliyati samaradorligi ortmoqda, eksponatlar xavfsizligi ta'minlanmoqda, shuningdek, xalqaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda. Shuni aytish mumkinki, muzei faoliyatining raqamli transformatsiyasi - bu nafaqat texnik yangilanish, balki madaniy merosni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishning eng ishonchli yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.12.2017 yildagi 975-son qarori.
2. Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея//Из истории культурного наследия Бухара № 2. - С 38, Церемония открытия в Бухаре первого музея// Бухоро ахбори 112-сон. 1922 йил 23 ноябрь.
3. Пулатова М. Асрлардан гувоҳлик бериб. // Бухоронома 2002 й 18.05. - С 4.
4. Болтаев А.Х. Бухоро музейи-тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. Бухоро 2019 йил. - Б 11.

